



## MIRZO ULUG'BEK TARJIMAI HOLI VA ULUG'BEK QABRINING OCHILISHI VA UNING TAVSIFI MASALALARI.

**Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li<sup>1</sup>,  
Abdiyeva Odina Xolnazar qizi<sup>2</sup>,  
Boboraxmatova Dilshoda Ismoilovna<sup>3</sup>.**

<sup>1</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika institute  
Tarix fakulteti talabasi  
Tel: +998919058632,

e-pochta [sattorovfirdavs1601@gmail.com](mailto:sattorovfirdavs1601@gmail.com)

<sup>2</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Tarix fakulteti talabasi  
Tel: +998908923188,

e-pochta [abdiyevaodina2000@gmail.com](mailto:abdiyevaodina2000@gmail.com)

<sup>3</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Tarix fakulteti talabasi  
Tel: +998919677977

e-pochta [boboraxmatovadilshoda90@gmail.com](mailto:boboraxmatovadilshoda90@gmail.com).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7266756>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 18<sup>th</sup> October 2022

Online: 31<sup>st</sup> October 2022

### KEY WORDS

Amir Temur, Jazira, Mordin, Sultoniya, Saroymulxonim, Ulug'bek, Gavharshodbegim, To'qal xonim, Shirvon, Armaniston, Samarqand, Oltin O'rda, To'xtamishxon, Fasih Havofiy, Umarshayx, Xarmutu, Ibrohim sulton, Shohrux, Qorabog', Muhammad sulton, Xitoy, " uch yillik", " besh yillik", " yetti yillik", Sharafuddin Ali Yazdiy, Shoh Malik, Shayx Nurddin, Sig'noq, Ashpar, Movarounnahr, Hirot, O'zbekxon, Oq sulton, Guragon, Xorazm, Dashti Qipchoq, Jo'qi, Toshkent, Shoxruxiya, Mug'uliston, Alouddavla, Abdullatif, Abdulaziz, Balx, Hirot, Abul Qosim Bobur,

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada buyuk o'zbek olimi va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay - Ulug'bekning hayoti va faoliyati, Ulug'bek qabrining ochilishi va o'rganilishiga bag'shlangan bo'lib, unda Ulug'bek tug'ulib o'sgan davr, uning davlat arbobi va olim bo'lib yetishishiga ta'sir qilgan omillar, ilmiy ijodining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.*



*Xuroson, Mironshoh, Abu Sa'd,  
Muhammad Xusrav, Abbas,  
M.M.Gerasimov, V.P.Nalivkin,  
Obirahmat, V.L.Vyatkin, Frir  
galereyasi, Yan Geveliy, Go'ri  
Amir, L.V.Oshanin.*

Hijriy 796 yilning rabi ul - avval ( milodiy 1394 yil yanvar) oyidan beri sovuqning shiddatiga qaramay Jahongir Temurning katta qo'shini Jazira viloyatining mustahkam shaharlaridan Mordinni chor tarafdin qattiq iskanjaga olib turardi. Bu shahar baland bir tog'ning tepasida joylashgan bo'lib, uning o'rtasida al - Boz ( Lochin ) degan yana bitta mustahkam qal'a ham bor edi. Temurning manjaniqlari va naftandozlarining zarbidan o'tkir shibalarning achchiq tishidan qal'a ichidagilar ham qiynalgan, ko'p odamlaridan ajralgandilar. [1, 4 bet.] 1394 yil 17 aprel ertalab Sul-toniyadan, Temurning muhataram va nufuzli xotini Saroymulk xonim huzuridan chopar kelib amirzoda Shohrux o'g'illik, jahongir Temur esa nevaralik bo'lganini xabar qildi. Bu mirzo Ulug'bekning tavalludi haqidagi xushxabar edi.

Bo'lajak buyuk olim hijriy 796 yiljumadi ul - avval oyining 19 kuni ( 1394 yil 23 mart ) dunyoga kelgandi. Temur bu xishxabarni g'urur va hotamlik bilan qarshi oldi: choparga bosh - oyoq sarupo, bir sipar oltin suyunchi berdi. [ 1, 5 - 6 bet.] Yana, o'sha muborak tavalludning shukronasi uchun Mordin xalqining joni va molidan kechdi, lekin yaxshilik bilan taslim bo'lishdan bo'yin tovlagan amir Isoni hokimiyatdan chetlatib, shahar va viloyatni uning inisi Sulton Solihning inon - ixtiyoriga topshirdi. Temur bolaga o' otasining ismini qo'ydi, lekin u ko'proq Ulug'bek nomi bilan mashhur bo'ldi. Taxallusini ham Temurning o'zi qo'ygan edi.

Ulug'bek onasi Gavharshodbegim va katta onalari Saroymulk xonim, To'qal xonim, Cho'lpon Malik og'a va ug'ruq bilan uch oy chamasi Sul-toniyada istiqomat qildi. Temur bo'lsa shu vaqt ichida Shirvon va Armaniston ustiga qo'shin tortdi. Ko'p o'tmay , 796 yilning rajab oyida ( 1394 yil may oyida ), Temur shahzodalar va xotinlarini ham Armanistonga chaqirtirib oldi. Shu janglar davomida chaqaloqni beshikda bir yil chamasi lashkar ketidan Armaniston va Zakavkaze yo'llarida olib yurdilar. 797 yil jumadi ul - avval oyining 7 kuni ( 1395 yil 28 fevral ) Temur xotinlari va nabiralarini Shohruxga qo'shib Samarqandga jo'natdi, o'zi esa tamom qo'shini bilan Oltin O'rda xoni To'xtamishga ( 1378 - 1395 ) qarshi urush ochdi. [ 2, 10 - 12 bet.]

Temurga zamondosh muarrixlardan Fasih Havofiyning aytishicha, huddi shu kuni ya'ni Ulug'bek tug'ulgan kecha mash'um hodisa ro'y beradi - Amir Temur sohibqironning ikkinchi o'g'li Umarshayx Bag'dod yaqinidagi Xarmatu qal'asini qamal qilish paytida o'ldiriladi. Bundan tashqari o'sha yili Shohrux mirzoning ikkinchi o'g'li ( boshqa xotinidan ) Ibrohim Sulton tug'uladi. Bu voqea Armaniston va Ozarbayjon hududida sodir bo'ladi. Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim Chig'atoy amirlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. G'iyosiddinning yana ikki qizi 1392 yili Umarshayxning o'g'illariga tekkan edi. [ 1, 6 - 7 bet.] Shohrux 1388 yildayoq, ya'ni 10 yoshligida uylangan edi. Lekin u o'shanda



Gavharshodbegimga uylanganmi yoki boshqa xotonga uylanganmi bizga ma'lum emas. Lekin Gavhar Shod og'a keyinchalik Shohruxning hayotida uning boshqa xotinlariga nisbatan muhim o'rin tutgan.

Shohruxning birinchi o'g'liga tug'ulishida Muhammad Tarag'ay ismi beriladi. Lekin hanuzgacha noma'lum sababga ko'ra, uning hayotida Ulug'bek atamasi ism bo'lib qolib asli ismini siqib chiqaradi. Ulug'bek bolaligida doimo buvisi Saroy Mulk xonimning ko'z ostida bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, Ulug'bekning ilk bolalik yillari Qorabog' bilan bog'liq.

Bu yer Temur davrigacha sharqda Arron deb atalardi. Lekin XIV asr oxirigi choragida, Temurning "besh yillik" yurishi davridan boshlab Qorabog' deb atala boshlaydi. Ulug'bek va Ibrohim tug'ulganidan keyin, Temur ko'zi yorigan kelinchaklarni o'g'ruq bilan birga 1394 yilning may oyidayoq bu yerga keltiradi. [ 4, 9 - 11 bet.] O'sha yil kuzida ular Sultoniyaga qaytib keladilar, qishida esa yana Temurning oldiga keladilar. Undan tashqari Ulug'bek Saroy mulk xonim bilan o'g'ruqda " yetti yillik " yurish yillarida 1399 - 1400 , 1401 - 1402 , 1403 - 1404 yillar qishlarini Qorabog'da o'tkazadi. Shahzodalar va xonimlar 1404 yili Samarqandga butunlay qaytib keladilar.

Ulug'bek 10 yoshidan keyin asosan Samarqandda yashaydi. Temur 1404 yili kuzida " yetti yillik " yurishdan qaytib kelganidan to o'lgunicha bo'lgan saroy hayotida Ulug'bek ham amirning boshqa nabiralari kabi faol ishtirok etadi. [ 1, 7 bet.] U Xitoy va Ispaniya elchilarining guvohi bo'ladi. O'sha yilning o'zida Temur 9 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan besh nabirasini uylantiradi. Ular orasida 10 yoshli Ulug'bek ham bor edi. Uning qaylig'i

Muhammad Sultonning qizi O'gay beka edi. 1404 yil Ulug'bekning bobosi Temur tirikligidagi eng osuda yil bo'ldi. 1404 yili Xitoyga yurishidan avval Temur chegaraviy mulklarini Shohruxning o'g'illariga ulashib beradi. Ulug'bekka Toshkent , Sayram, Yangi, ( qadimgi Taroz - hozirgi Jambul ) , Ashpara va Jeta viloyatidan to Xitoygacha yerlar tegadi; Ibrohim Sultonga Andijon, Axsikat, Qoshg'ardan to Xo'tangacha yerlar tegadi; Sharafuddin aytishicha , amirzodalarga bu yerlari " tamomi tobe va tegishlilari bilan birga o'tadi".

Bu yerda shuni aytish kerakki, bu ikki nabiraga " berilgan " yerlarning talay qismi aslida hali Temurning mulkiga kirmas edi; Ularni mulkka qo'shish uchun hali jang qilish kerak edi. Shuning uchun Temur " yetti yillik " yurishdan kelib Xitoyga yurishga o'tlangan edi. Bu eng so'nggi yurishning asli maqsadi aniq emas. Lekin Sharafuddin Ali Yazdiyning aytishicha " jihad qilib, shirk ahli va dindan toyganlardan islom qasosini olish edi ". 1405 yil 18 fevral kechasi Temur foniyan baqoga o'tadi. Ayrim tadqiqotchilar Temurning o'limiga sabab bo'lgan kasal uning sovuqdan isinish maqsadida mayin haddan ziyod ichganida deb hisoblaydilar. [ 3, 9 bet.] Fasih Havofiy Temurdan keyin tirik qolgan uning farzand va nabiralari sanab, ular 36 kishi ekanligini eslatadi, ular orasida Shohruxni juda yuqori ko'taradi. Chunki Temurning barcha o'g'il va nabiralari faqat "amirzoda " desa, Shohruxni "Buyuk hoqon " va " Bahodur " deb ham ataydi va Sherozda uning nomi bilan pul zarb etilganligini eslatadi. Uning o'n bir yashar birinchi o'g'lini esa " maxdumzoda Ulug'bek Guragon " deb ulug'laydi. 1409 yilning 24 dekabrda Shohrux Hirotga qaytib keladi. Samarqanddan ketishidan avval u



Ulug'bekni Samarqandning hokimi etib tayinlaydi, ikkinchi o'g'li Ibrohim Sultonga - Balx, Muhammad Jahongirga - Hisor, va Soli Saroy, Umarshayxning o'g'li Ahmadga - Farg'ona tegadi. Samarqandda Ulug'bek nomidan hokimiyatni amir Shoh Malik boshqaradi. [ 4, 12 – 14 bet].

Temurning eng ko'zga ko'ringan amirlaridan biri va Shoh Malikning jangovar safdoshi bo'lmish Shayx Nuriddin Shohrux va Ulug'bekning hokimligini tan olmaydi. Shoh Malik u bilan kurashda bir necha bor mag'lubiyatga uchraydi. Haqiqiy katta janglar 1411 yili yuz beradi. Shoh Malik va Ulug'bekning mag'lubiyatidan tashvishlangan Shohrux, Movarounnahr tarafga yo'l oladi.

Lekin 1411 yilning yozida Shoh Malik nayrang ishlatib Shayx Nuriddinni qatl qilishga moyassar bo'ladi. Shohrux 10 sentabr kuni Amudaryoning o'ng sohiliga o'tadi. Qashqadaryo bo'yida uni Ulug'bek o'z a'yinlari bilan birga kutib oladi [4, 13 bet]. Ular birga Samarqandga keladilar. Shohrux o'z lashkari bilan Cho'ponota tepaligi yaqinidagi Konigilda joylashadi. Bir necha kun turgandan so'ng Shohrux o'z mulkiga qaytadi va noyabrda Hirotga kirib keladi. O'zi bilan birga Shoh Malikni ham olib ketadi. Shunday qilib, Ulug'bek homiysidan holi bo'ladi va 17 yoshida Amudaryodan to Sig'noq va Ashpargacha bo'lgan yerlarning yagona amiri bo'lib qoladi. Otasi ketishi oldidan u birinchi marta hokim sifatida otasiga ziyofat beradi va katta hadyalar in'om qiladi.

Shundan keyin to 1447 yilgacha, ya'ni 36 yil davomida u Movarounnahrning yagona sultoni bo'ladi. Ulug'bekka zamondosh ulamo va muarrixlar uni "buyuk sulton, shahanshoh va xalifa " deb ulug'lasalar ham, u padariga hurmat yuzasidan xutbalarda va o'zi zarb etgan pullarda oliy

hokim sifatida Shohruxning nomini eslatadi. Shohrux davrida Eronda ham, Turonda ham osoyishtalik hukm suradi. [ 1, 14 bet]. Bunday sharoit yuzaga kelishda Shohruxning katta xotini va Ulug'bekning onasi Gavhar Shod beginning roli nihoyatda katta edi.

Ulug'bek otasiga bo'lgan hurmatini har tomonlama ko'rsatib turadi. Xutbalar va tangalarda Shohruxning nomini eslatishdan tashqari, u 1414, 1417, 1422, 1425 va 1434 yillar otasining oldiga Hirotga borib, unga turli hadyalar in'om qiladi. Ulug'bek bobosi Temur kabi, Chingiz avlodiga kuyov bo'lgani uchun o'z nomiga Guragon ( kuyov) qo'shimchasini qo'shadi. Bunga sabab shuki, uning birinchi xotinidan qaynotasi Muhammad Sulton ona tarafdan O'zbekxondan kelib chiqardi. Biroq, ikkinchi xotini Oq Sulton xoniqa tarafidan Guragon deyishga ko'proq loyiq bo'ladi, chunki bu xotining otasi Sulton Muahmmadxon to'g'ridan to'g'ri Chingiz avlodlaridan edi.

Temur saltanati Shohrux va Ulug'bek qo'lga o'tgandan so'ng mamlakatda birmuncha osoyishtalik o'rnatilgan bo'lsa ham, Temuriylar hokimiyati faqat Xorazmda qaror topmagan edi, chunki bu o'lka Temur vafotidan so'ng Oltin O'rda o'zbeklari qo'lga o'tgan edi. 1413-yili amir Shoh Malik Oltin O'rdada yuz bergan notinchlikdan foydalanib Ulug'bek yuborgan Movarounnahr lashkarlari bilan Xorazmni qo'lga kiritadi. [ 2, 11 – 12 bet]. Biroz o'tib u Xorazmda noib etib tayinlanadi va umrining oxirigacha - 1426 yilgacha hukm suradi. Bundan keyingi yillarda Shohrux va Ulug'bek Temuriylar saltanatini tiklash, kuchaytirish va xatto kengaytirish siyosatini olib boradilar. Shohrux 1413- yili Iskandar bilan jang qilib, uni yengadi. Ulug'bekning siyosati



Dasht o'zbeklari va mo'g'ullarga aloqador bo'lib, u xalqaro ahamiyatga ega edi. [ 4, 15 - 16 bet]. Chunki bu siyosat pirovardida Ulug'bekni Oltin O'rda, Mo'g'uliston, Qoshg'ar bilan, kengroq ma'noda aytsak, Dashti Qipchoq va Sharqiy Turkiston hokimiyatlari bilan siyosat ib borishga undardi. Ulug'bekning Qoshg'arga nisbatan siyosati muvaffaqiyatli bo'ladi: 1416- yili Qoshg'ar hokimi Shayx Ali Tug'ay Ulug'bek bilan muzokara qilib, „ buyuk amirning ruhi himoyasiga" ya'ni Temurning ruhi himoyasiga o'tish istagini bildiradi. Ulug'bek Qoshg'arga Siddiq va Ali nomli o'z odamlarini yuboradi. To'gay ularga shaharni topshirib Samarqandga keladi. Shunday qilib, 1421-yil oxiriga kelib, Ulug'bek Dashti qipchoqdagi Movarounnahrda yondashgan ikkila ko'chmanchi davlat taxtiga ham o'z odamlarini o'tkazib, saltanatining faqat ichki viloyatlarida emas, balki chegaralarida ham osoyishtalik o'rnatishga muvassar bo'ladi. [ 1, 14 - 15 bet]. Biroq, bu osoyishtalik uzoqqa cho'zilmaydi. Baroqxon ham Sher Muhammad ham Ulug'bekning ishonchini to'la oqlay olmaydilar. Birinchi bo'lib Sher Muhammad Ulug'bekka nisbatan qarshilik va takabburlik ko'rsata boshlaydi. Natijada bu ziddiyatlar urush boshlanishiga olib keladi.

1424-yili noyabr oyining boshlarida Ulug'bek yurishni boshlaydi. Otasi Shoxrux avvaliga bu yurishga rozilik beradi, lekin keyin ikki marta o'g'lini urushdan qaytarishga harakat qiladi. [ 4, 17 bet]. Biroq buning bo'lmay urush boshlanib ketadi. Og'ir tabiiy va geografik noqulay sharoitlarga olib borilgan bu urush 1425-yil Ulug'bek aslarkarining aytaylik katta bo'lmagan g'alabasi bilan tugaydi. Iyun oyining oxirida Ulug'bek Samarqandga qaytib keladi. Yurish g'alaba bilan

tugaganligi munosabati bilan bir necha kun tantana bo'ladi. G'alaba munosabati bilan Ulug'bek o'sha yili oktabrning oxirida otasining oldiga Xirotda borib, u yerda ikki haftacha bo'lib 17-noyabr kuni Samarqandga qaytib keladi. Lekin g'alaba tantanalari uzoqqa cho'zilmaydi. 1426 - yili Baroq Sirdaryo bo'yidagi yerlarga da'vogarlik e'lon qiladi. U Sirdaryoning quyi oqimidan to Sig'noq shahri atroflariga ha yerlarni, ya'ni Sirdaryoning deyarli hammasini unga berilishini talab qiladi. [ 4, 18 - 19 bet]. Bu esa yaqindagina Ulug'bekdan yordam olib taxtga o'tirgan kishi tarafidan o'ta ketgan surbetlikni namoyish qilish edi. Ulug'bek tezda jangga o'tlanadi va bu haqida otasini xabardor qiladi. Shohruh og'zaki tarzda Ulug'bekning jang boshlanishiga qarshilik jang boshlanishiga qarshilik qilib, amalda esa kichik o'g'li Jo'qini qo'shin bilan yordamga yuboradi.

Jo'qi 1427-yil 15- fevralda Xirotdan chiqib, Samarqanddan Sig'noqqa ketayotgan Ulug'bekka yetib oladi. [ 1, 15 bet ]. Aka -ukaning askarlari qo'shilganidan so'ng ular o'zlarini shu qadar qudratli sezadilarki, xatto harbiy xushyorlikni unutib qo'yadilar. Baroqning elchisi ularning oldiga kelib uzr so'rab, sulhni taklif etganida rad etadilar. Ahvol shu tarzda davom etayotganda Dasht o'zbeklarining aytarli katta bo'lmagan kuchi bexosdan hujum qilib, chig'atoylarni sarosimaga tushirib qo'yadi va natijada ular qochishga majbur bo'ladilar. Amirzodalarni bazo'r jang maydonidan olib chiqadilar. Ulug'bekning bu mag'lubiyati Movarounnahr aholisiga shunday ta'sir qiladiki, poytaxt notinch bo'lib, aholi o'rtasida yengilgan qo'shinlarni shaharga kiritmaslik tarafdorlari ham bor edi. Mag'lubiyat haqidagi xabar tezda



Shoxruxga ham yetadi, u yordam uchun askarlar va pul yuboradi. Ulug'bek bu askarlarni o'z qo'shinlariga qo'shib Toshkentda to'xtashni ma'qul topadi va bu yerda Dasht o'zbeklari poytaxtga borishga botinmay orqaga qaytganlarini eshitib, qanoat hosil qiladi.

Ulug'bek 1427- yil mag'lubiyatidan katta ruhiy zarba olgan ko'rinadi, chunki keyingi bir necha yil davomida mo'g'ullar ham, o'zbeklar ham Movarounnahrda bir necha marta hujum qilganlarida u biror marta o'zi boshchilik qilib qaqshatqich zarba berishga otlanmaydi. [ 3, 10 bet ]. Faqat 1434-yili Mo'g'ulistonga yuborgan qo'shini g'alaba bilan qaytadi va bir necha ming asirlarni olib keladi. Bu hodisa mo'g'ullarga shunchalik ta'sir qiladiki, ular bundan keyin Movarounnahrda hujum qilishga botinmaydilar. Dasht o'zbeklari bilan Ulug'bekning munosabati biroz og'ir bo'ladi. Ular avvaliga Temuriylar mulkiga hujum qilishga aytarli botinmasalar ham, Shohruxning o'limidan keyin Abulxayrxon davrida kuchayib, Turkistongacha bo'lgan yerlarni o'z mulklariga qo'shib oladilar. Bundan keyin Ulug'bek Dasht o'zbeklari bilan ham jeta mo'g'ullari bilan ham u yoki bu darajada muvaffaqiyatli siyosat olib boradi. Goho, tashqi dushmanlar, xatto saltanatning poytaxti Samarqand ostonalarigacha kirib kelganlarida ham buning yo xarbiy, yo siyosiy chorasini topadi. Ammo Ulug'bekning o'z hayoti uchun ham, mamlakatning ravnaqi va mustaqilligi uchun ham eng xavfli dushman tashqi dushman emas, balki Ulug'bek va farzandlari va umuman Temuriylar xonadoni orasidagi nizodan iborat ichki dushman bo'lgandi. Nizoning asosiy sababi esa saltanat taxti uchun kurash edi. Ulug'bek Shohrux tirikligida uning huzuriga Xirotdan faqat mehmon sifatida

borardi. Shohrux esa butun Temur merosining buyuk amiri sanalardi.

Shoxrux ham otasi Temur kabi ko'zi ochiqligida vasiyatnoma yozib aniq valiahdni tayinlamagan edi. Ulug'bek otasi bilan uchrashgan kezlarida meros tog'risida so'z ochmasdi; balki u to'ng'ich bo'lgani uchun bu masala xususida ko'ngli to'q bo'lgandir, chunki u valiahdlik da'vo qilishga xaqlik edi. Lekin Shoxrux saroyida Gavhar Shod begimning mavqei juda baland edi. U xatto erining davlat ishlariga ta'sir o'tkaza olar edi. Gavhar Shod begim Boysunqorning 1417-yil 17-iyunida tug'ilgan Alouddavla ismli o'g'lini juda sevar edi. [ 4, 20 bet ]. Lekin uni valiahd deb e'lon qilishga botinmas edi, chunki malika Ulug'bekdan va ayniqsa uning manfaatlarini Xirotda himoya qilib turgan o'g'li Abdulatifdan qattiq hayiqar edi. Lekin uni valiahd deb e'lon qilishga botinmas edi, chunki malika Ulug'bekdan va ayniqsa uning manfaatlarini Xirotda himoya qilib turgan o'g'li Abdulatifdan qattiq hayiqar edi. Undan tashqari Shohruxning 1402-yili tug'ilgan kenja o'g'li Balxning hokimi Muhammad Jo'qi ham taxtga da'vogarlik qilishi mumkin edi. [ 3, 10 bet ]. Shohruxning o'zi ana shu o'g'lini voris deyishga moyil edi. Lekin hokimiyatni aslida o'z qo'lida ushlab turgan Gavhar Shod shu amirzodaning onasi bo'lsa ham o'g'lini devon ishlariga hech aralastirmasdi, bu ishlarda ko'proq Alouddavla bilan Abdulatif ishtirok etardilar.

1444-yili Shohrux qattiq og'riydi va Xirotda sulton o'ladi degan xabar tarqaladi. Muhammad Jo'qi tezda Balxdan Xirotda keladi va Gavhar Shod begimning buyrug'i bilan amiri - lashkar Jaloliddin Feruzshoh amirzoda Alouddavlaning valiahdligiga bay keltirganini eshitadi va qattiq ranjiydi. [ 4,



21 – 22 bet ]. Lekin shu payt Shoxruh tuzalib, Muhammad Jo'qi to'satdan o'ladi. Endi bundan keyin Ulug'bek Shoxruhning tirik qolgan birgina o'g'li bo'lib, shuning uchun bo'lsa kerak, Gavhar Shod boshchiligidagi saroy ahli Alouddavlani valiahd deb e'lon qilishga botinmaydilar. 1446-yilning oxirida Shoxruh hayotidagi oxirgi xarbiy yurishni qiladi. Fors va Iroq Ajamda Boysunqorning o'g'li amirzoda Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib Xamadon va Isfaxonni bosib olgan, Sherozni qamal qilgan edi. [ 1, 25 – 27 bet ]. Alouddavla Xirotda qolib, Gavhar Shod va Abdulatif Shohruh bilan birga g'arbga yurishga ketgan edi. Shohruh deyarli qarshilikka uchramaydi va qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadi.

Shohruh qishlab turgan yerida yana kasal bo'ladi va hijriy 850 - yil 25-zulhijjada 1447-yil 13-mart kuni o'ladi. [ 1, 28 – 30 bet ]. Gavhar Shod begim Ulug'bekka manzur bo'lar deb, aslida esa uni g'afatda qoldirish maqsadida Abdulatifga lashkarning bosh amirligini tortiq qiladi. Abdulatif bo'lgan voqealar haqida tezda otasiga elchi yuboradi, o'zi esa avvalgi o'rni barong'orda lashkarning bosh qalbiga xoja alambardor yoniga boradi. Gavhar Shod ham xo'fiyona elchisini Xirotda Alouddavla huzuriga yuboradi. Ulug'bek xabar yetishi bilanoq o'z cheriklarini yig'ib, Amudaryo tarafiga yo'l oladi. Abdurazzoq Samarqandiyning guvohlik berishicha, Ulug'bek Shohruhning barcha yerlari yagona voris sifatida unga o'tishi kerak, deb hisoblagan. Lekin keyingi voqealar shuni ko'rsatadiki, Ulug'bek o'shanday deb hisoblashga haqqi bo'lgan esa-da, bu uning asosiy maqsadi bo'lmagan ko'rinadi.

Xurosonga yurish Ulug'bek bilan o'g'li Abdulatif o'rtasiga shunday sovuqchilik tushiradiki, tez kunda u dushmanlik tusini

oladi. Tarnob yaqinidagi jangda Ulug'bek javong'orni Abdulatifga va barong'orni kichik o'g'li Abdulazizga topshiradi. [ 1, 31 – 32 bet ]. Jangning g'alaba bilan tugashiga ko'proq Abdulatif o'z bahodirligi bilan hissa qo'shgan bolsa ham Ulug'bek atrof viloyatlarga g'alaba to'g'risida yuborgan yorliqlarida g'alabani Abdulaziz nomi bilan bog'laydi. Xirotda esa Abdulatif bundan ham ko'proq taxqirlanadi. Shoxruh davrida Xirotdagi Ixtiyoriddin qal'asi Abdulatifning hisoblanar edi. Bobosining davrida Xirotning „ kabiri" bo'lib yurgan Abdulatif otasining davrida majburan uning sag'iri bo'ladi. Lekin, afsuski, Abdulatif otasining unga qilayotgan munosabati chuqur bir siyosat ekanini tushunib yetolmadi. Ulug'bek o'g'liga bo'lgan munosabati bilan xirotliklarga endi Xirotdagi ahvol Shoxruh davridagidek bo'lmaydi va bu yerning „ kabirlari" ham shimdi „ sag'ir" ulajaq va yana Temurning davridagidek Xirotda ikkinchi darajalik va Samarqand poytaxt sifatida birinchi darajalik shahar, ulajaq demoqchi bo'lgan chamasi. Ulug'bekning Ibrisham daryosidan qaytishini Abulqosim Bobur ham chekinishdek anglab, unda yana Damg'ondan sharqqa yo'llanish istagini uyg'otadi, aftidan u ancha kuch to'plagan ko'rinadi, chunki bu kuchdan cho'chigan Abdulatif Bistomdan Nishopurga shunchalik tez chekinadiki, xatto manzillarning birida boloboni bilan bayrog'ini ham qoldiradi. [ 1, 33 – 35 bet ]. Ulug'bek Xirotda bir necha kun turadi; o'g'li Abdulatif ham kelib, unga qo'shiladi. Huddi shu payt o'zbek xoni Abulxayr mamlakatda Ulug'bek va uning o'g'illarining yo'qligidan foydalanib, Movarounnahrda xujum qiladi. U xatto Samarqand devorlariga yaqin kelib, shahar atrofini talaydi. Ulug'bek otasi Shoxruhning jasi va Gavhar Shod madrasasida Shohruh qoldirgan



boyliklarini oladi va tezda Xirotdan Samarqandga ketadi, Xirotda esa Abdulatifni qoldiradi. Ulug'bek yo'lda dushmanlar hujumiga va katta talafotlarga uchrab Buxorogacha yetib keladi va o'sha yil kishining qolgan qismini shu shaharda o'tkazadi. Bu yerdan Shoxruxning jasadini Samarqandga yuboradi va u Temur maqbarasiga dafn etiladi. Abdulatif esa Xirotda qal'ada edi. Ulug'bek ketganidan 15-kun keyin u shaharda butunlay tartib o'rnatib, Andxuy orqali Amudaryoga otasi huzuriga boradi. Askarlar daryodan o'tib bo'lgach, Ulug'bek Abdulatifga o'z mulki Balxga borsin, degan buyruqni beradi.

Bu paytda Xuroson va Xirotda Abul Qosim Boburning qo'liga o'tadi. 1448- yil oxiridagi voqealar askarlar, el va ulusda Ulug'bekka nisbatan katta norozilik uyg'otadi. Shunday bo'lsa ham u bahor kelishi bilan Xurosonga yurishni qasd qiladi. [ 1, 35 bet ]. Lekin taqdir taqozosiga ko'ra, o'g'li bilan jang qilishga to'g'ri keladi. O'sha payt Abdulatifning mulki Balx viloyati ancha ulkan bo'lib, mayda amirlik va beklıklardan iborat edi va ularni Temuriylar xonadoniga mansub shahslar boshqarardi. Shundaylardan biri Mironshoh ismli mirzoda 1449-yil bahorida qo'zg'olon ko'taradi. Abdulatif qo'zg'olonni bostiradi va mirzodani o'ldiradi va yonidan Ulug'bekka tuxmat qiluvchi bir xatni topadi. Shundan keyin Abdulatif otasiga butkul og'ib, Amudaryodagi kemalarni o'ziga oladi va o'z mulkidan Ulug'bek foydasiga olinadigan tamg'a solig'ini bekor qiladi.

Ulug'bek o'g'li Abdulatifga qarshi lashkar tortishga majbur bo'ladi va poytaxtda lichik o'g'li Abdulazizni qoldiradi. Ulug'bek bilan Abdulatifning lashkari uzoq muddat daryoning ikkala sohilida bir – biriga ro'para turadilar. Ikkala lashkar tarafidan

ham har xil to'dalar daryoni kechishga harakat qiladilar va kichik to'qnashuvlar bo'lib turadi. Shu payt Ulug'bekning askarlari orasida o'g'li Abdulaziz Samarqandda askar amirlarining oilalarini siquv qilayotganmush, degan ovoza tarqaladi. Ulug'bek kelib Samarqandda tartib o'rnatadi. Abu Sa'id cho'lga qochadi. Bundan keyin Ulug'bek o'zi bilan birga Abdulazizni olib yana Abdulatifga qarshi janggi ketdi. Ota bola lashkarlari o'rtasidagi jang Samarqand atrofidagi Damashq qishlog'i yaqinida sodir bo'ladi. Bu voqea 1449 yil sentyabrda yuz beradi. Ulug'bekning askarlari yengiladi; u shahar qal'asiga kirmoqchi bo'lganida Mironshoh qovchin uni kiritmaydi. [ 4, 24 bet ]. Ulug'bek o'zi bilan Abdulazizni olib, bir necha navkarlar bilan birga shimolga yo'l oladi va Shoxruxiya qal'asiga yaqinlashib keladi. Lekin qal'a qutvoli Ibrohim ismli mamluk, uni qal'aga kiritmaydi hatto uni tutib Abdulatifga topshirmoqchi ham bo'ladi. Shundan keyin Ulug'bekning o'zi Samarqandga kelib Abdulaziz va navkarlari bilan birga Abdulatifga taslim bo'ladi. Abdulatif avvaliga otasiga Makkaga haj qilishiga ijozat beradi va unga hamroh qilib bir hoji amir Muhammad Xusravni yuboradi. [ 1, 41 – 42 bet]. Shu vaqtning o'zida Abdulatif otasidan xufiyona qozilarni to'plab, uning ustidan hukm chiqaradi. Ulug'bek "haj" ga hoji Muhammad Xusrav bilan birga ketadi. Yo'lda ularni sulduz urug'idan bir chig'atoy turk quvib yetadi. U xonning nomidan Ulug'bekning sayohatiga tayyorgarchilik tugaganiga qadar qo'shni qishloqda to'xtasinlar deb buyuradi. Kuz bo'lsa ham havo juda siovuq edi. Ulug'bek o't yoqib go'sht qaynatilishini buyuradi. Olovning bir uchquni uning to'niga tushib, bir qismini kuyduradi; Ulug'bek olovga qarab: " Sen ham bilding!" deydi. Shu payt



to'satdan eshik ochilib, ko'zlariga qon to'lgan Abbas bilan yana bir shaxs kirib keladi. Abbasni ko'rishi bilan Ulug'bek beixtiyor unga tashlanib, ko'krigiga bir musht uradi. [ 1, 42 - 43 ]. Abbasning yonidagi kishi Ulug'bekni ushlab uning yelkasidagi oltoy po'stinini yechadi. Abbas arqon keltirish uchun ketadi. Abbas qaytib kelganida Ulug'bekning qo'llari bog'lanib, tashqariga chiqarib qo'yilgan edi; hoji bilan Ulug'bekning boshqa yo'ldoshlari turli burchaklarga bekinib olishadi. Abbas Ulug'bekni fonus yoniga o'tkazadi va qilichning bir zarbi bilan boshini tanasidan judo qiladi. [ 1, 44 - 45 bet ]. Bu hodisa hijriy 853 yil 8-ramazon / milodiy 1449 yili 25 oktyabr kuni sodir bo'lgan edi. Abdulatif otasidan ikki yoki uch kun keyin ukasi Abdulazizni o'ldiradi. [ 1, 45 bet ].

Yangi va eng yangi davr olimlarning ishlari va erishgan asosiy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilmasa, Ulug'bekning hayoti va faoliyati, uning irodasi bilan Samarqandda qurilgan rasadxonaning vujudga kelishi hamda ishini o'rganish tarixiga oid yuqorida keltirilgan umumiy tarixiy ocherki to'liq bo'lmay qoladi. Olimlarni Ulug'bekning tasviriy san'at orqali bizgacha yetib kelgan oz sonli tasvirlari haqiqiy qiyofasiga nechog'li tog'ri yoxud sof shartli uslubda ishlangani to'g'risidagi masala ham qiziqtiradi. 1941 yil iyunida esa tadqiqotchilar uchun Go'ri Amir maqbarasidagi Ulug'bek qabrini ochish va suyaklarini o'rganishdek o'ta noyob va yagona imkoniyat tug'uldi. [ 5, 66 bet ]. Bosh suyagining qoldiqlari bo'yicha yuz qiyofasini tiklashning ilmiy usulini yaratgan taniqli antropolog olim M.M. Gerasimovning Ulug'bek haykalini yasashga urinishi ana shu o'rganish natijalaridan biri bo'ldi.

" Ko'hak tepaligi pastida " joylashgan degan so'zlariga garchi XIX asr oxirlaridayoq e'tibor berilganiga qaramay, rasadxona Ulug'bek madrasasida bo'lgan, degan yanglish taxmin fanda uzoq vaqtlargacha hukm surib keldi. [ 5, 66 - 67 bet ]. Turkistinshunos V.P. Nalivkin esa Samarqand oqsoqollarining ko'rsatmalariga asoslangan holda "rasadxona shaharning hozirgi eski qismidan shimolda, Siyob arig'i ortida, Obirahmat arig'i yaqinida, eski pochta yo'lidan o'ng tomonda, tepalik poyida ... ichida bo'shliqlar borligi aniq", deb taxmin qilgan. Samarqand o'tmishining bilimdoni V.L. Vyatkin va uning mahalliy aholi vakillaridan ko'ngilli yordamchilari olib borgan uzoq muddatli tinimsiz izlanishlar natijasida rasadxona aynan shu alfozda topildi.

V.L. Vyatkin 1908 - 1909 yillari Ulug'bekning Samarqanddagi mashhur rasadxonasi qoldiqlarini ochishi, keyinchalik ularni o'rganish va rasadxonaning ilk me'moriy qiyofasini tiklashga urinish bilan bog'liq boy adabiyotni bu o'rinda ko'rib o'tmaymiz. [ 5, 67 bet ].

Rasadxonaga doir xilma - xil taxminlar o'rtaga tashlangan. Hozirgi kunga kelib, balandligi rasadxonaning asosiy asbobi sekstantning holati va o'lchamlaridan kelib chiqish belgilangan, degan tassavur bir qancha jihatlari bo'yicha boshqa taxminlardan farqlanmagani holda uzil - kesil bo'lmasa ham, har qalay ma'lum darajada barqarordir. Bino aylana shaklida, uch qavatli, uchinchi qavatida ochiq ravoqli ayvon, binoga toj sifatida stalaktit shaklidagi yetti qatorli katta sharafa bo'lgan. Asosiy darvoza bino o'qida, shimol tomonida bo'lgan ko'rinadi. Bino ichida xonalar murakkab, lekin aniq shaklda



joylashgan. Endi Ulug'bek tasviriga keladigan bo'lsak, Frir galereyasi majmuasidagi bir miniatyura alohida o'rin tutadi. XV asrning qirqinchi yillarida ishlangan miniatyurada, Ulug'bek oilasi va a'yonlari bilan lochin ovida tasvirlangan.

"Podshohligi barqaror bo'lgur buyuk sulton, Ulug'bek Ko'ragon " shohona guldor chodir ostida, guldor gilam ustida o'tiribdi. [ 5, 67 – 68 bet ]. Miniatyuraning uslubi va yaratilish davriga qaraganda, Ulug'bekning tasviri asliga yaqin bo'lishi kerak. "Yuzi cho'ziqroq, moshikichri soqoli va mo'yablari O'rta Osiyoga xos tarzda tekislangan, qirg'iyburun, ko'zlari qiyiq. Ulug'bekning boshidagi oppoq va serbar namat qalpoq ham O'rta Osiyo muhitiga xosdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, Yan Geveliyning "Astronomiya darakchisi" kitobidagi ( 1690 yil ) ikkita suratda Ulug'bek buyuk astronomlar davrasida tasvirlangan. V.P. Shcheglov " Ulug'bek tasvirida qandaydir darajada portretlarga xos o'xshashlik bor ya'ni masala ochiq qoladi", deb taxmin qilgan. [ 5, 68 bet ]. Bizning ham imonimiz komilki, bu tasvir shartli ekanligini ochiqdan - ochiq va yaqqol ko'rinib turgani shak - shubhasizdir.

Ulug'bekning qiyofasini tiklash uchun eng ishonchli material, yuqorida aytib o'tilganidek Go'ri Amir maqbarasida Temur va boshqalarning qabrlari ochilganda olindi. Ulug'bekning skeleti mashhur olim va hukmdor qay tarzda o'ldirilganini to'liq tasdiqladi: boshi butkul uzib tashlangan, qolaversa, " o'tkir va kesuvchi qurolida shu qadar kuchli zarba berilganki, yuqori bo'yin umurtqasi qiya kesilganidan bosh bir lahzada uchib ketgan. Kiyim qoldiqlari ham Ulug'bek o'ldirilgan paytdagi kiymida dafn etilgan, deb taxmin qilishga asos beradi: Shariat ko'rsatmasiga binoan

"shahid" libosida dafn etilishi lozim bo'lgan. Ulug'bekning suyak qoldiqlarini o'rganish antropologlarni olim qiyofasi O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ining mo'g'ulga qo'shimchalar aralashgan yevropoid tipiga mansub degan xuloaaga olib keldi.

Antropologlar L.V. Oshanin va V. Ya. Zezenkovalarning fikriga ko'ra bobosi Temurning bosh suyagiga nisbatan Ulug'bekda mongoloid tipi ancha zaif namoyon bo'lgan, bu esa Ulug'bekning otasi Shohruh yevropoid tipiga mansubligi bilan izohlanadi. [ 5, 67 - 68 bet ]. Biroq bo'yi ( 165,8 ) va bosh suyagining hajmi ( 1517 sm<sup>3</sup> ), shuningdek, badani va qo'l - oyoq suyaklarining o'lchamlari bo'yicha Ulug'bek Shohruhga nisbatan Temurga yaqinroq bo'lgan. Ulug'bek bosh suyagining parchalardan iborat qoldiqlari bo'yicha antropolog M.M. Gerasimov uning qiyofasini tiklashga urinib ko'rdi. Akademik V.P. Shcheglovning guvohlik berishicha, M.M. Gerasimov Temur, Shohruh va Ulug'bekning bosh suyagi qoldiqlari bo'yicha tiklangan qiyofalarini namoyish qilar ekan. [ 5, 68 bet ]. Ulug'bek yon tomondan otasi Shohruhga va old tomondan bobosi Temurga o'xshashligiga diqqatini tortgan. A.A. Semyonov Go'ri Amir maqbarasi daxmasidagi Ulug'bekning oq marmardan iborat qabr toshidagi bitikni aniq ilmiy tarjima qilish bilan fanga katta hissa qo'shdi ( " Bu nurli qabr... cho'lda azobda o'ldi, ( o'g'li ) unga nisbatan haqsizlik qilib otasiga o'tkir xanjar tortdi"....). Yozuvdagi qoralovchi ohang u padarkush Abdulatif hukmronligidan keyin bitilganidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Jahonga tanilgan yetuk alloma, benazir inson, adolatparvar jamoat arbobi mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy feodal jamiyat zulmati aro ipm va ezgulik mash'alini



naqadar yuksakka ko'targani yaxshi ma'lum. Ayni choqda u o'z davrining yetuk olimi bosib o'tgan murakkab yo'lning ko'pgina jihatlari haligacha bizga qo'rong'u bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan olib aytishimiz mumkinki ko'pgina olimlar Mirzo Ulug'bek haqida uzoq izlanishlar

qilishgan qadimiy yozma yodgorliklar orqali ko'pgina asarlar yozishgan. Bu maqola orqali siz Ulug'bek zamoniga yurish qilasiz, buyuk allomaning olamshumul iomiy kashfiyotlari qilgan ishlariga guvoh bo'lishingiz mumkin.

### References:

1. A.Ahmedov, Ulug'bek ( hayoti va faoliyati ) (1394 – 1449) . Toshkent, O'zbekiston SSJ “ Fan” nashriyoti, 1991 – yil. 4 – 15 bet, 16 – 45 bet.
2. B. Ahmedov , Ulug'bek. Toshkent, O'zbekiston LKSM markaziy komiteti, “ Yosh gvardiya” nashriyoti 1989 – yil, 9 – 13 bet.
3. B. Ahmedov, Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirsida, Toshkent, “ O'qituvchi” 1996 yil, 6 – 10 bet.
4. A.Ahmedov, Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. Toshkent,
5. “ O'zbekiston” 2011 – yil, 3 – 24 bet.
6. Bosh moharrir – A.Asqarov, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti, Temur va Ulug'bek davri tarixi, Toshkent. 66 – 68 bet.
7. Назиров Б. С. СУРХОН ВОҚАСИ-ПАЙҒАМБАР АВЛОДЛАРИ МАКОН ТОПГАН ЮРТ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – С. 67.
8. Назиров Б. С. СУРХОҢДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИЛК ОТ СПОРТИ КЛУБЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 11.
9. Nazirov B. S. MASTER WHO DEVOTED HIS LIFE TO SPORTS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 78-82.
10. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oasis //ACADEMICIA:AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1228-1231.
11. Nazirov B. S. Establishment of a new legal system in the field of physical culture and sports in Uzbekistan in 2017–2020 //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 1081-1084.
12. Nazirov B. S. O'ZBEKISTONDA 2017-2020 YILLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY TIZIMNING YO'LGA QO'YILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1687-1693.
13. Назиров Б. С. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.
14. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oakh //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1441-1446.
15. Nazirov B.S., Mengliboyev A.X., Bozorov Q.D.Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug'bek. Risola// – “Lesson press” nashriyoti. – Toshkent: 2022. – 104 bet.



16. Nazirov B. S., Bozorov Q.D. Aburazzoq Samarqandiyning “Matlai sadayn va majma ul bahrayn” asarida tarixiy shaxslar talqini. Risola – “Lesson press” nashriyoti. – Toshkent: 2022. – 56 bet.